Yusupova Umidaxon Qaxxarovna
Toshkent viloyati Oqqo‘rg‘on tuman 1-son kasb-hunar maktabi
yoshlar bilan ishlash bo‘yicha direktor o‘rinbosari

PROFESSIONAL TA’LIM TIZIMINING – UCHINCHI RENESSANSDAGI O‘RNI

Annotatsiya:Ushbu maqolada jamiyatdagi mavjud muammolardan biri ta’lim, xususan, professional ta’limning “uchunchi renessansda”gi o‘rni batafsil tahlil qilib berilgan. Maqolada renessansning inson hayotidagi o‘rni va inson hayotida ta’limning o‘rni, shuningdek professional ta’limda kasb-hunarning o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilib berildi.
Kalit so‘zlar: Renessans, uchinchi renessans, Yangi O‘zbekiston, mehnat bozori, dunyo ustaxonasi, dual ta’lim.

“Renessans” lug‘aviy fransuzcha “qayta tug‘ilish” degan ma’noni anglatadi. Atama sifatida uning mazmuni ancha keng: madaniyatda, ilm-fanda, san’atda, ta’lim-tarbiyada, umuman, jamiyat hayotida uzoq muddatli turg‘unlikdan keyin qayta jonlanib, tez rivojlanishni, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimi yangi sifat bosqichiga chiqishini bildiradi. Ilk bor atama Yevropada o‘rta asrlar mutaassibligidan keyin 15-16 asrlardagi rivojlanish davriga nisbatan qo‘llanilgan. Renessans atalmish mazkur ijtimoiy hodisa o‘zbek tiliga Uyg‘onish davri deb o‘girilgan.

Avstriyalik atoqli sharqshunos Adam Mesning 1909 yilda “Musulmon Renessansi” nomli fundamental asari chop etilgan. Shundan buyon Renessans faqat Yevropaga oid hodisa emasligi, uni Sharq xalqlari yevropaliklarga nisbatan avvalroq boshdan kechirgani to‘g‘risidagi qarashlar va tadqiqotlar paydo bo‘la boshladi. Rossiyalik buyuk sharqshunos akademik N. N. Konrad Renessans VII — VIII asrlarda Xitoyda boshlanib, VIII asrda Hindistonda davom etgani, undan IX-XII asrlarda islom mamlakatlari estafetani qabul qilgani, mo‘g‘ul istilosi tufayli ancha pasayib qolgan yuksalish Amir Temur va temuriylar davrida yana qayta gurkurab o‘sganini ta’kidlaydi. U O‘rta Sharq Uyg‘onish davrini Alisher Navoiy zamonasigacha cho‘zadi. Javoharlal Neru Boburni ham Renessansning tipik vakili, deb baholagan edi.

Milliy g‘oya aslida muayyan xalqning oliy istiqbol maqsadini bir necha so‘zlarda yoki iborada mujassam ifodalovchi tushunchalar yoki shior, iboradir. U xalqni o‘sha maqsad yo‘lida birlashtiradi, safarbar etadi. Xalq barcha sa’y-harakatlarini, intilishlarini, bunyodkorlik faoliyatini unga muvofiqlashtiradi. Zarur bo‘lsa, iqtisodiy, ijtimoiy munosabatlarini, mamlakatning huquqiy, siyosiy, mafkuraviy asoslarini, ta’lim-tarbiya tizimini chuqur isloh qiladi. Milliy g‘oyaning asosiy vazifalaridan biri, avvalo, xalqning jipsligini, birligini, mamlakatning hududiy yaxlitligini saqlash va mustahkamlashdir. Ikkinchidan, millatning oliy maqsadini, rivojlanish marralarini, mo‘ljallarini umumiy tarzda aniqlaydi. Milliy g‘oya turli iboralarda ifodalanishi mumkin. Lekin ifoda shaklidan qat’i nazar, xalqqa istiqbolni, ijtimoiy mo‘ljalni ko‘rsatishi shart.

O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev «Yangi O‘zbekiston» gazetasiga bergan intervyusida Uchinchi Renessans va Yangi O‘zbekiston konsepsiyalari nimani anglatishi haqida so‘zlab berdi.

«Darvoqe, “yangi” degan so‘zning biz uchun alohida ahamiyati bor. Masalan, eng ko‘hna bayramlarimizdan biri Navro‘z — Yangi kun deb atalishini esga olaylik. Ushbu qadimiy bayram bilan bog‘liq qadriyat va an’analar hayotimizga shu qadar singib ketganki, xalqimiz asrlar davomida, buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy aytganlaridek, “Har tuning qadr o‘lubon, har kuning bo‘lsin Navro‘z!“ degan ezgu tilaklar, pok niyatlar bilan yashab keladi», — dedi davlat rahbari.

Insonning o‘zi bu-ijodkordir. Aynan biz mulohaza yuritayotgan “uchinchi renessans” insoning o‘z ustida ishlashga, unda hayotga bo‘lgan zavqlanish hissini shakllantirishga,

https://wordlyknowledge.uz

jamiyatga va insonlarga bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarni rivojlanishiga bir so‘z bilan aytganda dunyoqarash treaktoriyasining shakllanishiga olib keladi. Bu masalada yana bir muammo bor-ki bu – insonning erkinligidir. Qaerdaki erkinlik bo‘lsa (so‘z va fikr erkinligi) o‘sha jamiyatda progressiv o‘zgarish juda tez intinsivlashadi. Aksincha qaerdaki erkinlik to‘silgan bo‘lsa bo‘g‘ilgan bo‘lsa o‘sha yerda tanazzul tez sodir bo‘ladi. Bizning fikrimizga ko‘ra mana shu erkinlik insonda ijodkorlikni shakllantiradi. Biz qo‘yayotgan muammo ta’limning professional turini bugun qay darajada jamiyat a’zorlari tomonidan tan olinishi va uni “Yangi O‘zbekiston”da “uchinchi renessansda”gi o‘rnini ilmiy-qiyosiy tahlillar asosida asoslashga harakat qildik.

Jahon mehnat bozorining 60% ulushi o‘rta maxsus bilimga ega bo‘lgan mutaxassislar hisobiga to‘g‘ri keladi. Bu borada biz bilgan va hozirgi kunda ularning tajribasini andoza sifatida o‘z ichki mehnat bozorimizda amalyotga yo‘naltirayotgan Singapur, Xitoy, Germaniya, Janubiy Koreya kabi davlatlarda ham asosan ta’limning professional turi kengroq rivojlanmoqda.

Bu borada, YUNESKO tomonidan 2030 yilgacha belgilangan Barqaror rivojlanish maqsadlari va xalqaro ta’lim konsepsiyasida “Butun hayot davomida sifatli ta’lim olishga imkoniyat yaratish” dolzarb vazifa sifatida belgilab berildi va bu bugun dunyo “mehnat bozorida”, “dunyo ustaxonasida” liderlik uchun kurashayotgan davlatlar taraqqiyotining hal qiluvchi mezoniga aylanib bormoqda. O‘zbekistonda Professional ta’lim tizimi xalqaro standartlarga mos tashkil etilgani xalqaro tashkilotlar tomonidan ham yuqori baholanmoqda. Davlatimiz tomonidan tizimga ishonch bildirildi hamda uni rivojlantirish uchun ko‘plab xorijiy hamkorlarning sarmoyalari va loyihalari jalb qilinmoqda. Bu borada Yevropa Ittifoqi komissiyasi, YUNESKO, Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ), Osiyo taraqqiyot banki, Shveysariyaning O‘zbekistondagi elchixonasi Helvetas Uzbekistan fondi loyihalari professional ta’lim tizimini rivojlantirish borasida keng masshtabdagi islohotlar eshigini ochib berdi.

Bu borada professional ta’lim tizimi pedagoglari malakasini xorijiy tajriba asosida oshirish bo‘yicha ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, Germaniyaning “German Sparkassenstiftung for International Cooperation” tashkiloti loyihasi doirasida 18 nafar master trener hamda 39 nafar trener tayyorlandi. Ular boshchiligida 500 nafardan ortiq o‘quvchi tadbirkorlik ko‘nikmalari bo‘yicha o‘qitildi.

Aynan beg‘araz asosida ko‘rsatilayotgan yordamlar fuqarolarimiz, xususan yoshlarni kasbga o‘rgatish va ularda kasb va hunar egallash ko‘nikmasini hosil qilishga zamin yaratadi. Qolaversa, professional ta’limning tayyorlov yo‘nalishlari, kasblar va mutaxassisliklar klassifikatori YUNESKO tomonidan joriy qilingan Ta’limning xalqaro standart klassifikatsiyasi hamda “TXSK: Ta’lim va kasbiy tayyorlash sohalari” prinsiplari bo‘yicha takomillashtirildi. Mazkur klassifikator bo‘yicha mehnat bozoridagi asosiy ish beruvchilar, tarmoq malaka kengashlari, shuningdek, vazirlik va idoralar taklifi asosida o‘rta bo‘g‘in kadrlarni tayyorlash yo‘lga qo‘yildi.

Jamiyatimiz taraqqiyotida ta’limning o‘rni nechog‘lik muhim ekanligi hammamiz uchun ma’lum va kechiktirib bo‘lmas jarayondir. Dastlab, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va Prezidentimizning 2019 yil 6 sentyabrdagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni asosida mutlaqo yangi, uzluksiz professional ta’lim tizimi barpo etildi. Ulardan ko‘zlangan maqsad 2020-2021 o‘quv yilidan uch toifadagi, ya’ni boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim muassasalari tarmog‘i faoliyati yo‘lga qo‘yildi hamda 330 ta kasb-hunar maktabi, vazirlik va idoralar tizimidagi 166 ta kollej va 208 ta texnikum faoliyati yo‘lga qo‘yish orqali jamiyat a’zolarining yosh qatlamlarini ma’lum kasbga, hunarga yoki o‘zi qiziqqan mutaxassislikga yo‘anltiishdan iboratdir. Shuningdek xalqaro standart klassifikatsiyasi asosida o‘qitishning tabaqalashtirilgan uch darajasiga muvofiq ta’limning yangi klassifikator 132 ta’lim yo‘nalishi,

https://wordlyknowledge.uz

professional ta’lim bo‘yicha jami 714 ta kasb va mutaxassislikni tashkil qilindi va amaliyotga yo‘naltirildi.

Shu bilan birga, arxitektura va qurilish, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi, muhandislik, axborot texnologiyalari sohalarida 25 foizdan 40 foizgacha talabani davlat granti asosida o‘qitish yo‘lga qo‘yilgan. O‘tgan 2021 yilning 1 iyundan boshlab professional ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yigit-qizlarga ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish korxonalarida amaliyot o‘tagan vaqtida davlat byudjeti mablag‘i hisobidan bazaviy hisoblashning ikki barobari miqdorida har oylik subsidiya ajratish amaliyoti joriy etildi.

O‘tgan 2022 o‘quv yilidan boshlab “Yoshlar daftari”ga kiritilgan 671 nafar o‘quvchiga ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish korxonalarida amaliyot o‘tagan davrida byudjet mablag‘lari hisobidan 460,4 million so‘m subsidiya ajratildi. Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 29 martdagi “Professional ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida”gi qaroriga muvofiq, 2021-2022 o‘quv yilidan professional ta’lim tizimida dual ta’lim tashkil etish maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, manfaatdor vazirlik va idoralar hamda oliy ta’lim muassasalari takliflari shakllantirildi.

Dual ta’limni joriy qilishda dastlab kollej va texnikumlarda dual ta’lim shakli joriy qilindi. 3 ming 34 nafar o‘quvchining 22 kasb va mutaxassislik bo‘yicha dual ta’lim shakli asosida o‘qitilishi yo‘lga qo‘yildi. Jumladan, 57 ta kollejga 2 ming 44 nafar, 8 ta texnikumga 990 nafar yigit-qiz qabul qilindi. Ular orasida maktabgacha ta’lim, arxitektura va qurilish hamda transport xizmatlari yo‘nalishlariga talab yuqori bo‘lib, asosiy ish beruvchilar — maktabgacha ta’lim tashkilotlari hamda transport sohasidagi korxonalar bilan shartnomalar rasmiylashtirildi.

Shu bilan birga professional ta’lim tizimida faoliyat olib borayotgan o‘qituvchi va ishlab chiqarish ta’limi ustalarining malakasini oshirish jarayonida kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish uchun 14 ta professional ta’lim muassasasi huzurida “Ilg‘or professional tayyorgarlik markazi” tashkil qilinmoqda. Mazkur markazlarda o‘qituvchi va ishlab chiqarish ta’limi ustalarining malakasini oshirish hamda kasbiy kompetentliligini rivojlantirish ehtiyojga asoslangan va amaliyotga yo‘naltirilgan holda tashkil qilinadi.

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta’kidlashimiz joizki bugun yoshlarni ayniqsa maktab va kasb-hunar maktab bitiruvchilarini qo‘llab-quvvatlashimiz zarurdir. Aynan bularni kuchi va salohiyati erta, biz qurayotgan “Ozod va obod vatanni, erkin va farovon jamiyatni” tom ma’nodagi egalaridir. Agar islohotlarimiz asnosida biz ko‘proq yoshlar va ularning turmush tarzi va hayotiy ko‘nikmalari bilan doim ogoh bo‘lib borsak o‘ylaymanki, biz dunyoda o‘z so‘zimizga ega bo‘ladigan millat yoki xalqlardan biri bo‘lamiz....

Internet manbalari

1. https://yuz.uz/news/professional-talim-tizimi-transformatsiyasi
2. https://yuz.uz/uz/news/professional-talim-tizimi-va-xalqaro-andozalar
3. https://xs.uz/uzkr/post/professional-talim-muassasalarining-yangi-tizimi-tashkil-etiladi

https://wordlyknowledge.uz